

UO'K (UDC, УДК): 811.11-112

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SIMVOLLARNING SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI ¹²

Xakimova Surayyo Iskandarovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

Email: surayyokhakimova@gmail.com

[Orcid ID: 0000-0002-6183-6878](https://orcid.org/0000-0002-6183-6878)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada simvollarning sotsiopragmatik jihatlarini, ya'ni simvollarning ijtimoiy kontekstda qanday ma'no kasb etishi va amaliy maqsadlarda qanday qo'llanilishini tadqiq qilinadi. Sotsiopragmatika – til va kommunikatsiyaning ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liqligini o'rganuvchi fan sifatida simvollarning kommunikativ vazifalarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Tadqiqotda simvollarning semantik, pragmatik va ijtimoiy xususiyatlari orqali ularning kommunikativ maqsadlari va madaniy-ijtimoiy ta'siri ham tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot "Ingliz va o'zbek tillaridagi ramziy so'zlarning sotsiopragmatik va lingvakulturologik xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiyamizda amalga oshirilgan nazariy va amaliy materiallar asosida shakllantirildi. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillaridagi fitosimvollar, xususan, eman, chinor, lola, shamrok kabi o'simliklar yordamida ularning ma'nolarining o'zgaruvchanligi, kontekstga bog'liqligi va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi o'xshashliklari va farqlari kabi masalalar muhokama qilinadi. Bundan tashqari, tadqiqot fitosimvollarning madaniy va tarixiy qanday shakllanishi hamda ularning ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini ham ochib beradi. Tadqiqot natijalari jarayonini samarali tashkillashtirish va simvolik ma'nolarni tushunishning madaniy-tarixiy ahamiyatini muhimligini ko'rsatish maqsadida sotsiopragmatik, lingakulturlogik, etimologik va chog'ishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan.

KALIT SO'ZLAR

Sotsiopragmatika, simvol, madaniyat, ijtimoiy rol, eman daraxti, chinor daraxti, lola, uch barg (shamrock)

Received: March 3, 2025
Accepted: March 30, 2025
Available online: May 2, 2025

¹² **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Xakimova S. Ingliz va o'zbek tillaridagi simvollarning sotsiopragmatik xususiyatlari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 162-176.

СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СИМВОЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Хакимова Сурайё Искандаровна

Базовый докторант

Ташкентский государственный
университет узбекского языка и
литературы имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

Email: surayyokhakimova@gmail.com

Orcid ID: 0000-0002-6183-6878

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена исследованию социопрагматических аспектов символики, то есть анализу факторов, способствующих приобретению символами значения в социальном контексте, а также их использования для достижения практических целей. Социопрагматика как наука, изучающая связь языка и коммуникации с социальными и культурными факторами, позволяет глубже понять коммуникативные функции символов. В исследовании также анализируются коммуникативные цели и культурно-социальное влияние символов через их семантические, прагматические и социальные характеристики. Данное исследование было проведено на основе теоретических положений и практических выводов, полученных в ходе работы над диссертацией на тему «Социопрагматические и лингвокультурологические особенности символов в английском и узбекском языках». В ходе исследования обсуждаются такие вопросы, как вариативность значений символов и их контекстная обусловленность, а также сходства и различия в использовании фитосимволов (в частности, таких растений, как дуб, клен, тюльпан, трилистник) различными социальными группами носителей английского и узбекского языков. В статье также показано, как фитосимволы формируются под влиянием культурных и исторических обстоятельств, а также обоснована их социальная значимость. В целях эффективной организации процесса получения результатов исследования и демонстрации значимости культурно-исторических факторов для понимания символических значений были использованы методы социопрагматического, лингвокультурологического, этимологического и сравнительного анализа.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Социопрагматика, символ, фитосимвол, культура, социальная роль, дуб, клен, тюльпан, трилистник.

SOCIOPRAGMATIC FEATURES OF SYMBOLS IN ENGLISH AND UZBEK

Khakimova Surayyo Iskandarovna

Doctoral candidate at Alisher Navoi Tashkent State

University of Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan

Email: surayyokhakimova@gmail.com

Orcid ID: 0000-0002-6183-6878

ABSTRACT

This study examines the socio-pragmatic aspects of symbols and analyzes how symbols gain meaning in a social context and are used for practical purposes. Sociopragmatics is a science that examines the relationship between language and communication with social and cultural factors and enables a deeper understanding of the communicative functions of symbols. The study also analyzes their communication goals and cultural and social influence through the semantic, pragmatic and social characteristics of symbols. This study based on the theoretical and practical materials of our dissertation on the topic “Sociopragmatic and linguacultural characteristics of symbolic words in English and Uzbek.” The study discusses topics such as the variability of their meanings, contextual dependence, and similarities and differences between social groups using phytosymbols in English and Uzbek, in particular plants such as oak, maple, tulip, shamrock. In addition, the study also shows how phytosymbols are formed culturally and historically, as well as their social significance. Methods of sociopragmatic, linguacultural, etymological and comparative analysis are used to effectively organize the process of research and demonstrate the importance of the cultural and historical significance of understanding symbolic meanings.

KEY WORDS

Sociopragmatics,
symbol, phytosymbol,
culture, social role, oak,
maple, tulip, shamrock

KIRISH

Keyingi yillarda tilshunos olimlar e'tiborini o'ziga ko'proq jalb qilayotgan tilshunoslik sohasi – sotsiopragmatika. Mazkur atamani 1983-yilda J.Lich fanga olib kirgan. Sotsiopragmatikaning o'rganish predmeti – pragmatika va sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Boshqacha aytganda, sotsiopragmatika bu pragmatik tadqiqotlar doirasida sotsiolingvistik yondashuvni qo'llash demakdir.

Ma'lumki, tilshunoslikning pragmatika tarmog'i tilning funksional tomonini tadqiq qiladi, ya'ni kommunikatsiya jarayonidagi tilni o'rganadi. Shunga mos ravishda, pragmatikaning predmeti - kommunikatsiya quyidagi komponentlardan: 1) adresant (subyekt, muallif, jo'natuvchi, gapiruvchi; 2) adresat (obyekt, resipient, tinglovchi, qabul qiluvchi, o'quvchi); kommunikatsiya vaziyati; 4) kommunikatsiya tilidan tashkil topgan. Sotsiolingvistikada esa “tilning ijtimoiy kontekstdagi” roli muhim, ya'ni sotsiolingvistika “til va jamiyat” bilan xarakterlanadi. Bu esa tadqiqot predmetimiz – simvollarni til va jamiyat nuqtayi nazaridan ham tadqiq etish lozimligini ko'rsatadi. Chunki simvol madaniyatda ma'lum bir sotsial funktsiyani bajarishi hamda bir tilda yoki jamiyatda ifodalangan simvol ikkinchi tilda ifodalanmasligi yoki ekvivalentiga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, simvollar nutqda ifodalayotgan ma'no va vazifasiga ko'ra ham turli xil bo'ladi. Ushbu xilma-xillik nutq egalarining jamiyatdagi ijtimoiy roli va madaniy qarashlari orqali yuzaga keladi hamda ular o'rtasida axborot almashuvini murakkablashtirishiga olib keladi. Mazkur tafovutlar turli tizimli tillardagi simvollarni tahlil qilish orqali kamaytiriladi, bu esa simvollarning sotsiopragmatik tadqiqi ahamiyatli ekanligini belgilaydi.

Bugungi kunga qadar simvol va unga oid muammolarning o'rganilishi keng tarmoqli ekanligini tadqiqotlar ko'rsatadi. Jumladan, R.Barthes, U.Eko, V.Turner, W.Nothing, T. Sebeok, Yoshio Sezai, Xiuhuang He, A.Vetrov, Yu.Stepanov, A.Losev, V.Propp, A.Potebnya, N.D.Artyunova, Y.M. Lotman, V.A.Maslova, S.Jumayeva, N. Djusupov, H. O'tanova, Z.Mamadaileva, Sh.Atayev, M.Ro'ziyeva, N.Sabirova, A.Bazarbayeva, Sh.G.Turdimov hamda D.Bahromovalar tadqiqotlarida semiotika va uning predmeti (belgi va simvol) yuzasidan falsafiy, antropolog, psixolog, lingvistik, lingvakulturologik, adabiyotshunoslik va folklorga oid sohalar bilan

aloqadorlikda nazariy va amaliy izlanishlar olib borilgan. Bunga asosiy sabab simvolning ishlatilish va talqin qilish ko‘lami kengligidandir. Xususan, simvollar 1)so‘zlashuv tilidagi so‘zlarni yaratish va ulardan foydalanishda; 2)ma’lumotni yozishning yozma shakllari, alifbolar, iyeroglif tizimlari, grammatikalarda; 3) ononomika (joylar, joylar nomlari, geografik obyektlar, ismlar); 4) din va san’atning majoziy ramzlari(me’morchilik, hunarmandchilik va b.); 5) bayram va boshqa marosimlar; 6) harbiy-siyosiy marosim, geraldika; 7) turli xil vizual va ovozli signallar; 8) xulq-atvor, odob-axloq, xushmuomalalikni ifodalovchi xatti-harakat; 10) ramziy imo-ishoralar, yuz ifodalari, 10) marosim harakatlari va raqslar; 11) kiyim, soch turmagi kabilar, 12) zargarlik buyumlari, qurollar, uy-ro‘zg‘or buyumlari; 13) dizayn; 14) ijtimoiy obro‘–e’tibor namunalari;15) milliy qadriyat tasvirlari va identifikatsiya; 16) gender jozibadorligini tasvirlari va shu kabilarda qo‘llaniladi (Ya.A. Flier, 2015, 51-57). Bu esa simvolning sotsiopragmatik tadqiqini talab qiladi.

Sotsiopragmatik tahlilda muloqot ishtirokchilar “adresant/muallif va adresat/o‘quvchi”, birinchi navbatda, ijtimoiy xususiyatiga ko‘ra o‘rganiladi. Bunda muloqot ishtirokchilarining yoshi, jinsi va albatta, “ijtimoiy roli” muhim ahamiyat kasb etadi (Киньябузова Л.А., 2010, 274-283). Jamiyatda yashaydigan va turli guruhlarga mansub bo‘lgan har bir individ jamiyatda bir qancha ijtimoiy o‘ringa ega bo‘ladi. Mazkur o‘rinlarning har biri muayyan qoidalar va vazifalar bilan bog‘liq bo‘lib, u “ijtimoiy maqom yoki rol” deb nomlanadi. Ijtimoiy maqomlarning har biriga insonning o‘zi erishadi. Bunday maqomlarga orttirilgan maqomlar sanaladi(Usmanova Sh. va b., 2014, 84) . Olima L. Raupova kommunikativ aloqaga kirishayotgan nutq ishtirokchilarining o‘ziga xos jihatlarini ajratishda uning ijtimoiy mavqeyi muhim sanalishini, kommunikativ aloqa jarayonida jamiyat a’zolarining lisoniy shaxs sifatida voqelanishi badiiy asarda dialogik nutqda yorqinroq namoyon bo‘lishini qayd etgan(Raupova L.,2020). Demak, so‘ngi yillarda tilshunoslikda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar aynan nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqotda ularning ijtimoiy mavqeyi, roli, yoshi va jinsi kabi sotsiopragmatik xususiyatlariga asoslanadi. Bu esa tadqiqot predmetimiz simvollarning sotsiopragmatik tahlilda

yosh, gender, ijtimoiy maqom va milliy xususiyatlari, umuman olganda ijtimoiy muhitning ta'sirini natijasida dinamikligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda simvollarning sotsiopragmatik xususiyatlarini aniqlashda dissertatsiyamizda keltirilgan ingliz va o'zbek tillaridagi o'simlik dunyosi(fitosimvol) bilan bog'liq simvollar asos qilib olindi.

ASOSIY QISM

Simvol – ma'lum bir xalqning kelib chiqishi, turmush tarzi, urf-odat va an'analari to'g'risida ma'lumot beruvchi vosita sifatida qaralgan. Xususan, etnograf V.Terner rang simvolikasini turli xalqlar madaniyatida o'rganib, simvollarning madaniyatlararo farqli va o'xshashliklarni aniqlashga yordam bergan. Simvollarning mifologiyada tadqiqi etilishi yuzasidan A.F.Losev hamda F.Shellingning tadqiqotlari ahamiyatga molikdir. Tadqiqotchilar mifologik obrazlar haqida fikr yuritir ekan, ularning ko'pchiligi(xudolar, ma'budlar) simvolik ahamiyatga egaligini ta'kidlashadi, chunki o'sha davrda yashagan odamlar ularga sig'inishgan va ularni o'z siymolariga aylantirishgan(Maslova V., 2001). G. Dudaning ta'biricha: “simvol – denotativ va konnotativ ma'noni yaratadigan ideal dunyo va materialistik dunyodagi elementlarning aspektlarini o'xshatishdir”, R.Zafiuning talqiniga ko'ra, “simvol – o'z ahamiyatiga ega bo'lgan aniq bir tasvirdir, uning abstrakt ma'nosi faqat ma'lum bir vaziyatda aniqlanadi”. E.Negriki esa “simvollar matnning asosiy g'oyasini uzatishda adresantga ko'maklashuvchi vositachi so'zlardir.” Fransuz tilshunosi E.Benvenist simvol – til va tafakkurni birlashtiruvchi vositaligi va ramziylashtirish inson qobiliyatining asosi ekanligini izohlaydi. [Pederson, 2015]. Ko'rinadiki, simvol – o'xshatish asosiga quriladigan, adresantga fikrni izohlashda yordamchi hamda ma'lum bir vaziyatdagina uning ma'nosini idrok qilish mumkin bo'lgan madaniyat tashuvchisi demakdir.

Simvolning asosiy vazifalari – informatsiya va kommunikatsiya. Inson kommunikatsiyada turli xil verbal va noverbal simvollar orqali axborot uzatadi, ushbu axborot nutq egasining millati, ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi, mavqeyi, umuman olganda, jamiyatdagi ijtimoiy roldan darak beradi. Masalan, ingliz tilda “*shamrock*” o'simligi botanik ma'nosiga ko'ra, “*a plant that has three round leaves*

on each stem” – uch aylana shaklli yashil bargdan iborat o‘simlik sifatida lug‘aviy ma’noga ega. Lekin mazkur o‘simlik – Irlandiya ramzi. Mazkur o‘simlikning Irlandiyaning ramziga aylanishi uning tarixi va madaniyati bilan bog‘liq. Afsonalarga ko‘ra, Avliyo Patrick (St.Patrick) Irlandiyaga Xristian dinini yoyilishida homiylik qiladi hamda dinni tushuntirishda mazkur o‘simlikdan foydalangan. Unga ko‘ra, o‘simlikdagi 3 ta barg – Father, Son, Holy Spirit – ga ishora qiladi. Shu sababli ham Irlandiya Avliyo Patrick (St.Patrick)ni xristian dinining rahnamosi sifatida ulug‘lab, uning sharafiga 17-martni bayram qilishadi. Mazkur diniy bayramda Irlandiya aholisi “shamrock” tasviri tushirilgan yashil rangli liboslar kiyishadi. Shu tariqa, “shamrock” –uch bargli yashil o‘simlik Irlandiyaning milliy ramziga aylanadi. Bundan tashqari, mazkur o‘simlikning to‘rt bargli turi ham mavjud bo‘lib, u omad ramzini ifodalaydi. Bunda 4 ta bargning o‘z ramziy ma’nolari mavjud – “ishonch, umid, sevgi va omad” – kabi mavhum tushunchalarga ishora qiladi. Jumladan, *“May your thoughts be as glad as the shamrocks. May your heart be as light as a song. May each day bring you bright, happy hours. That stay with you all the year long.”* (Agar insonni yaxshi niyatda bo‘lsa, xotirjam bo‘lsa, har bir kuni baxtli va quvonchli bo‘ladi)– ushbu Irlandiya naqlida inson o‘y-xayollarining “shamrock” o‘simligiga qiyoslanadi. Demak, “shamrock” nafaqat o‘simlik, balki Irlandiya milliy ramzi hamda omad simvolik ma’nolariga ega bo‘lib, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayoti, dini, adabiyoti, arxitektura, marosimlarida uchraydi.

O‘zbek xalqida lola/tulipning milliy gul sifatida qadrlanadi. Lola/tulip – qadimdan xalqimiz urf-odat va an’analarida, hunarmandchilik, san’at va adabiyot hamda folklorda keng foydalanilgan. Shunga ko‘ra, ushbu gul – o‘zbek milliy identifikatsiyasiga ishora qiluvchi floragrafik simvol. O‘zbek tilining izohli lug‘atida 1) “loladoshlar oilasiga mansub, yirik, chiroyli gulli ko‘p yillik o‘simlik” va 2) “qizil, qirmizi” rangni tasvirlashda ko‘chma ma’noda ishlatiluvchi leksema deb ta’riflanadi. Masalan, *Ochilmoq istarkan lola dudoqlar, Javdirab ko‘zlaring nechun o‘ynoqlar. (Uyg‘un); Lola kabi yuzim qizil , ichim g‘am(Hamid Olimjon, Muqanna);* - mazkur satrlarda “lola” leksemasi orqali inson labining, yuzining qizilligini ifodalamoqda. O‘zbek milliy kashtachiligida, ayniqsa, Samarqand

kashtachiligini lola gulli naqshlarsiz tasavvur qilish qiyin. Mazkur soʻzanalar oʻziga xos lokal semantik maʼnolarga ega. Jumladan, soʻzanalar kelin-kuyov xonasi-chimildiqqa yaxshi niyatlar bilan osib qoʻyiladi. Bundan koʻzlangan maqsad – yangi oilaning hayoti gullarga toʻlib, baxtli-farovon umr kechirishi nazarda tutiladi (Ashirov, 2020). Bundan tashqari, ushbu oʻsimlik Oʻzbekiston hududida antroponim va toponimlar tarzida ham keng tarqalgan. Xususan, oʻzbek qizlari ismlari orasida Lola, Gullola, Shalola, Lolajon, Lolaoy, Lolagul, Lolaniso, Lolaqiz ismlari, asosan, qizning lola gulidek nafosatli, chiroyli, koʻrkam, goʻzal boʻlishi yoki bahor faslida, ayniqsa lolalar ochilgan vaqtda tugʻilganligiga ishora qiladi. Demak, lola oʻzbek xalqi madaniyatida ayniqsa, oʻzbek amaliy sanʼati va marosimiy hayotida takrorlanmas oʻziga xos oʻrniga ega boʻlgan gul turidir.

Yuqoridagi maʼlumotlarga tayangan holda simvol sotsiopragmatikada ham muhim ahamiyat kasb etishini, adresantning milliy-madaniyligi, ijtimoiy roli haqida tinglovchi (adresat)ga yordam beradi.

Simvolning kommunikatsiydagi asosiy ijtimoiy funksiyasi insonlar oʻrtasida maʼlumot almashtirish va ushbu maʼlumotni ixcham shaklda uzatishdan iborat. Masalan, oʻzbek xalq maqolida “*Chiroying borida chinoringni top*” – “chinor” leksemasi “umr yoʻldosh”ga ishora qiluvchi simvol sanalib, metafora yordamida obrazli ifodalanmoqda. Bunda “OʻSIMLIK – INSON” konsepti asosida nutq qisqa, emotsional taʼsirga ega. Chunki oʻzbek xalqida turmush oʻrtoq –*yelkadosh*, *suyanchiq*, *kuch-gʻayrat*, *mustahkamlik* kabi xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Mazkur xususiyatlar bir leksema – “chinor” oʻsimligi yordamida tinglovchiga ixcham, sodda yetkazilmoqda va axborotning hissiy boʻyoqdorligini ifodalagan. Bundan tashqari, ushbu leksema gender xususiyatlarini ham namoyon etmoqda. Yaʼni nutqning adresati boʻy yetgan, turmush yoshidagi qiz ekanligi aniq. Demak, “chinor” fitonimi oʻzbek xalqida erkak jinsiga ishora qiluvchi fitosimvol. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida chinor – “*poʻsti koʻkish, panjasiman shapaloq bargli, uzoq umrli, sersoya katta daraxt*” sifatida ifodalanadi. Shu sababdan *chinordek baquvvat*, *chinordek chidamli*, *chinor kelbat*, *chinor qomat* kabi iboralar oʻzbek xalqida erkak

kishini kuch-qudrati, bilaklarining kuchga toʻlaligini koʻrsatishda mazkur daraxtning sifatleri insonga koʻchiriladi.

Ingliz tilida ham insonning kuch-gʻayratini koʻrsatish uchun obrazli tarzda *strong as oak, sturdy as oak* (emandek kuchli) kabi iboralarga duch kelamiz. Bunda “oak” – daraxt turi sanalib, ingliz madaniyatida chidamliligi, kattaligi, koʻp yilligi bilan ajralib turadi. Shu sababdan Angliya qurilish sanoatida, ayniqsa, kemalar qurilishida oak/eman daraxtining oʻrni beqiyos xom-ashyo materiali. Jumladan, quyidagi satrlar buni isbotlaydi:

Heart of oak are our ships,

Hearts of oak are our men,

We always are ready, steady boys, steady,

To charge and conquer again and again

Shoir David Garrick qalamiga mansub ushbu misralar XVIII asrda Britaniya armiyasining madhiyasi boʻlgan. Mazkur satrlarda oak/eman daraxti kemandagi asosiy xom-ashyo manbai sifatida “*heart of oak*” iborasi bilan ifodalangan. Inglizlar daraxtning qattiq, zich, yaʼni markaziy qismini – *heartwood of oak* – deb tasvirlashgan. Keyinchalik bu ibora koʻchma maʼnoda qoʻllanila boshlaydi. Yaʼni insonning kuch-qudrat, shijoatini mazkur daraxt yordamida ifodalaydi. Yuqoridagi satrlarda “*heart of oak*” nafaqat oʻz maʼnosida, balki koʻchma maʼnoda dengiz jangchilarining kuch, shijoat va matonatiga ham ishora qilmoqda. Anglanadiki, bir maʼno ikki tilda “daraxt” tushunchasi orqali amalga oshirilmoqda. Lekin ikki madaniyatning mintaqaviy, geografik joylashuvi turli xilligi tufayli daraxt turlarida farqlangan. Bu esa har bir simvolning nafaqat kommunikatsiyada nutqning ixcham va boʻyoqdorligi, balki madaniyat bilan aloqadorligining yaqqol ifodasidir.

Simvol doimo kontekst bilan aloqador. Bunda maʼlum bir maʼnoga ega boʻlgan simvol ijtimoiy-madaniy kontekstda oʻziga xos mazmun-mohiyat kasb etishi ham mumkin. Masalan, “*a reed before the wind lives on, while mighty oaks do fall*”- *those who remain flexible and adaptable will be able to survive change, hardship, or adversity more easily than those who try to challenge or stand against it* – mazkur iborada oak/eman daraxtining kuch-qudrati, magʻrurligi uning uchun

ziyon keltirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Ushbu iboraning kelib chiqishi Ezop masallariga borib tarqaladi. Jumladan, *"The oak tree and the reeds"* masalida "oak/eman" daraxtining kuch-qudrati ifodalansa-da, u mag'rur, kekkaygan kishilarga ramziy ishora qiladi. Masalan, masalada – *When the wind blew, the great Oak stood proudly upright with its hundred arms uplifted to the sky.* – mazkur qatorlar oak/eman daraxtining kuch-qudrati, shamol esishiga qaramasdan mag'rur, tik ekanligi bayon etgan. Bu esa ushbu daraxtning tabiiy ofatlarga bardoshli ekanligi, kuchli daraxt ekanligining ramziy belgisi bo'lsa-da, lekin "oak/eman" daraxtining o'ta mag'rur, egilmas ekanligi bilan salbiy konotatsiyani vujudga keltrigan. Xususan, *"You have reason to complain," said the Oak. "The slightest breeze that ruffles the surface of the water makes you bow your heads, while I, the mighty Oak, stand upright and firm before the howling tempest."* – mazkur satrlar orqali Oak/eman daraxti har qanday vaziyatda ham kuchli va mag'rur bo'lishi bilan masaldagi ikkinchi obraz – *reeds/qamishlarni* kichik bir tabiiy ofat – shabada – egiltirib hamda sindirishi mumkinligini ta'kidlab kekkayadi. Ammo masal yakunida – kuchli, mag'rur oak/eman daraxti bo'ronga qarshi kurashib, o'zini mag'rur, tik tutadi, natijada, afsuski, u sinadi. Qamishlar esa egilib, bukilib o'z hayotini saqlab qoladi. Ezop bu masal orqali oak/eman daraxtidek mag'rur va qaysar bo'lib singanda ko'ra, qamishdek egiluvchan bo'lib hamma sharoitda muvaffiqiyatga erishish lozimligiga ishora qilmoqda(*Better to yield when it is folly to resist, than to resist stubbornly and be destroyed*). Oak/eman daraxti mag'rurligi, qattiqligi bilan ham muvaffaqqiyatsizlikka uchradi, sindi. Ko'rinadiki, oak/eman daraxtining ramziy ma'nosi bu yerda kontekstga aloqador bo'lib, salbiy ma'noni ifodalagan. O'zbek tilida "chinor" daraxti ingliz tilidagi Oak/eman daraxti bilan yonma-yon qiyoslanganda yozuvchi O'tkir Hoshimov ham *chinorning buyukligi uning uning bahobatli bo'lishi yoki uzoq umr ko'rishida emas, balki, chinor... qanday shamol esishidan qat'iy nazar qilt etmay mag'rur turgani uchun buyuk ekanligini* (Dunyoning ishlari asaridan) ta'kidlab, uning mustahkamlilik xususiyatiga ahamiyat qaratgan. Anglandiki, chinor daraxti oak/eman daraxtidan farqli ularoq, shamolda uning mag'rur turishi uning ijobiy xislati – mustahkamligiga ishora qilgan. Bundan


ko‘rinadiki, kontekstda simvollar ma‘nosi o‘zgarishi – uning dinamikligini ko‘rsatadi. “Oak/eman va chinor” – daraxt nomi ostida birlashgan, lug‘aviy ma‘nosi bir-birga yaqin leksemalardir. Lekin ularni ijtimoiy-madaniy muhit turli ramziy ma‘noda qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi (Shakl 1).

Nutqda simvolik tildan foydalanish P.Grice nazaryasini to‘liq oqlamasligi mumkin. P.Grice kommunikatsiya maqsadiga erishishda 4 ta asosiy tamoyillarni qayd etgan. Ularni quyidagicha izohlaydi: 1) *maxim of quality* – nutqning to‘g‘ri va aniq bo‘lishi; 2) *maxim of quantity* – nutq ko‘p ham kam ham bo‘lmasligi; 3) *maxim of relation* – axborotning aloqador va tegishli bo‘lishi; 4) *maxim of manner* – qochiriq tildan foydalanmaslik va faktga asosan gapirish (H.P.Grice, 1989). Tadqiqot predmetimiz simvollar mazkur tamoyillardan ikkinchi va to‘rtinchini butunlay inkor qiladi. Chunki simvol – ma‘lum bir murakkab tushunchani sodda, qisqa ifodalash usuli hamda nutqda u qochiriq til sanalib, tinglovchini chalg‘itadi, Bu esa nutq jarayonida tushunmovchiliklarga olib keladi. Jumladan, gul simvolikasi ayol kishiga xos nafislik, go‘zallik kabi xususiyatlarni obrazli shakllantirishda nutqda keng foydalaniladi. Chunki gul va ayol – tabiatning mazkur ikki in‘omi go‘zallikni o‘zida mujassam etgan. Shu sababdan, gullar – feminizm ramzi. Journalist Terri Guillements gullarni ta’riflar ekan: *A flower’s appeal is in its contradictions — so delicate in form yet strong in fragrance, so small in size yet big in beauty, so short in life yet long on effect* – ularni nozik, lekin o‘tkir iforli; kichik, lekin chiroyli; umri qisqa, ammo ta’siri abadiy. Demak, gullardagi mazkur sifatlar –noziklik, go‘zallik, latofat, ifor, hayot kabilar ayol jinsida ham mavjud. Masalan,

Gul yuzung erur **lola**, vale, lolai xudro‘y,

Tor og‘zing erur **g‘uncha**, vale, g‘unchai xandon. (Bobur)

Izoh: Ushbu baytda Zahiriddin Muhammad Bobur yorning husnini gul, lola, g‘uncha leksemalari orqali ifodalab, uning qiymatini oshirgan.



Lekin tahlillar natijasida ba'zi gullar erkak jinsini ham tasvirlashda ishlatilganligi aniqlandi. Masalan, lavanda o'simligi – gulsimon o'simlik sanaladi. Mazkur gul bugungi kunda ingliz tilida sleng tarzida ishlatilib, erkak jinsiga ishora qiladi. Ingliz tilidagi izohli lug'atda (CALD), ***Lavender boy** - a feminine or girly gay man* – ayolsifat erkaklarni tasvirlash uchun lavanda guli simvol sifatida olingan. Bunda simvol chalg'ituvchi xususiyatga ega, chunki u erkak jinsiga ishora qilgan. Demak, simvol nafaqat chalg'ituvchi xususiyatga egaligi bilan muloqot jarayonida tafovutga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda simvollar inson hayotini barcha sohasida keng foydalaniladi. Y. S. Lobanova simvollar “inson faoliyatining turli jihatlarini aks ettirish orqali tilning kommunikativ salohiyatini kengaytirishi”ni ta'kidlaydi (Lobanov, 2011, 53-56). Haqiqatan, simvol jamiyatda mavjud. Uning kengayishi va yo'q bo'lishi ham jamiyatdagi vaziyatga bog'liq. Jumladan, hozirgi paytda simvollar, ayniqsa, marketing (brend, reklama) sohalarida keng foydalanilmoqda, Bundan ko'zlangan maqsad iste'molchilarga ta'sir o'tqazish va mahsulotni sotib olishga undash. Ko'rinadiki, jamiyatda simvollarning ishlatilish ko'lami kengayib boriveradi.

XULOSA

Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, simvol turli madaniyat va kontekstlarda har xil semantik ma'nolarga egaligi bilan xarakterlanadi. Ba'zida bir tushunchaning turli simvollar bilan ifodalanishi muloqot jarayonida murakkablik tug'dirasa, ba'zida simvollar chalg'ituvchi xususiyatga egaligi bilan ifodalanadi. Shu sababdan ularni idrok etishda sotsiopragmatik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Simvollarning sotsiopragmatik tadqiqi ularning nafaqat semantik, balki ijtimoiy va madaniy kontekstlardagi ma'nolarini tushunishga yordam beradi. Jumladan, tahlilga olingan ingliz va o'zbek tillaridagi fitosimvollar, birinchidan, madaniyat va tarix ma'lumotlarini o'zida mujassam etsa, ikkinchidan, simvol muloqot jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki simvol orqali madaniy o'ziga xoslik ifodalanib qolmasdan, adresantga ma'lumotni qisqa, lo'nda uzatishga ham yordamchi vazifasini ham o'taydi. Shunday vaziyatda Sotsiopragmatik tahlil simvollarning turli madaniyat va kontekstlarda idrok etish

imkonini beradi. Bu esa tadqiqotning tilshunoslik, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya sohalarida hali chuqur tadqiq etilishini ko'rsatadi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashirov A. (2020). Tulip In The Culture Of Uzbek People. *American Journal of Social Science and Education Innovations*, Vol.-II, Issue IV, 6-16. <http://usajournalshub.com/index.php/tajssei/> ISSN (e): 2689-100X
2. Flier A. Ya. (2015). Culture as a Social Regulatory Program: The Stage of Formation. *The Culture of Culture Journal*. <http://cult-cult.ru/culture-as-a-social-regulatory-program-the-stage-of-formation>
3. Grice, H. P. (1989). Logic and conversation. Reprinted in *Studies in the way of words*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Киньябузова Л.А. (2010). Предмет изучения социопрагматики. *Наука и современность*. – Moskva. 2010. – С. 279-284
5. Лобанова Я.С. (2011) Проблема символа в философской герменевтике П. Рикера. *Вестник ТГУ*. 2011. № 1. С. 53–56.
6. Маслова В. А.(2001). Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб.заведений. — М.: Академия. — 208 с. ISBN 5-7695-0745-4
7. Pedersen E.G. (2015). Semantics of the Symbol: Main Theories About the Symbol and the Themes of Symbols in Alexandru Macedonski's Poetry. *Social and Behavioral Sciences*. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro>
8. Raupova L.R., Kholmurodova M.I.(2020). Dialogical discourse as an environment in which a predicative unit is implemented. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*.83(2) <http://T-Science.org>
9. Qayumov A. (2008) Zahiriddin Muhammad Bobur. —Toshkent: Fan. —52b.
10. Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. (2014). *Sotsiolingvistika*. — Toshkent: Universitet, — 84 b.
11. O'tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. www.ziyouz.com.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 Tom. (2020). — Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti.
13. Aesop's fables. <file:///D:/PhD/Aesops%20fables.pdf>

14. <https://www.britannica.com/dictionary>
15. <https://dictionary.cambridge.org/>
16. <https://www.thefreedictionary.com/>
17. <https://allpoetry.com/Hearts-Of-Oak>
18. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari>

REFERENCES

1. Ashirov A. (2020). Tulip In The Culture Of Uzbek People. *American Journal of Social Science and Education Innovations*, Vol.-II, Issue IV, 6-16. <http://usajournalshub.com/index.php/tajssei/> ISSN (e): 2689-100X
2. Flier A. Ya. (2015). Culture as a Social Regulatory Program: The Stage of Formation. *The Culture of Culture Journal*. <http://cult-cult.ru/culture-as-a-social-regulatory-program-the-stage-of-formation>
3. Grice, H. P. (1989). Logic and conversation. Reprinted in *Studies in the way of words*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Киньябузова Л.А. (2010). Предмет изучения социопрагматики. *Наука и современность*. Moskva. P. 279-284
5. Лобанова Я.С. (2011) Проблема символа в философской герменевтике П. Рикера. *Вестник ТГУ*. 2011. № 1. P. 53–56.
6. Маслова В. А. (2001). Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб.заведений. Moscow. Академия. 208 p.
7. Pedersen E.G. (2015). Semantics of the Symbol: Main Theories About the Symbol and the Themes of Symbols in Alexandru Macedonski's Poetry. *Social and Behavioral Sciences*. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro>
8. Raupova L.R., Kholmurodova M.I. (2020). Dialogical discourse as an environment in which a polypredictive unit is implemented. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*.83(2) <http://T-Science.org>
9. Qayumov A. (2008) Zahiriddin Muhammad Bobur. Toshkent. Fan. 52 p.

10. Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. (2014). Sotsiolingvistika. – Toshkent: Universitet. 84 b.
11. O‘tkir Hoshimov. Daftari hoshiyasidagi bitiklar. www.ziyouz.com.
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 Tom. (2020). Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti.
13. Aesop’s fables. <file:///D:/PhD/Aesops%20fables.pdf>
14. <https://www.britannica.com/dictionary>
15. <https://dictionary.cambridge.org/>
16. <https://www.thefreedictionary.com/>
17. <https://allpoetry.com/Hearts-Of-Oak>
<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari>